XALQ DEPUTATLARI QORAKO'L TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 14 - yanvar VI-45-1-2-37-K/22 Qorako'l tuman hokimligi

Qorako‘l tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq 2022 yil uchun Qorako‘l tumani byudjetini ko‘rib chiqib, qabul qilish bo‘yicha Xalq deputatlari Qorako‘l tumani Kengashi (Keyingi o‘rinlarda Kengash deb ataladi)

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Qorako‘l tumani mahalliy byudjetining 2022 yil uchun daromadlari 75 mlrd. 945 mln. 924 so‘m, xarajatlari 177 mlrd. 54 mln. 77 so‘m prognoz qilinganligi hamda yuqori byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 101 mlrd. 108 mln. 153 so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun Qorako‘l tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetidan tuman byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Qorako‘l tuman bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetining tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 mlrd. 654 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2022 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Qorako‘l tumani tuman mahalliy byudjetining ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun byudjetning zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022 yil uchun tumanning tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari

uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar;

v) viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.G‘aybullayev), Moliya bo‘limi (Sh.Shermuhammedov), Davlat soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev) mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

Tuman mahalliy byudjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev), tuman kadastr bo‘limi (U.Husenov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev):

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Qorako‘l tuman bo‘limi (I.Hidoyatov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (S.Rahimov) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman hokimi o‘rinboslari (R.Choriyev, B.Jumayev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

18. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev), tuman moliya bo‘limi (Sh.Shermuhammedov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev), tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

20. Tuman irrigatsiya bo‘limi (H.Ravshanov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (Z.To‘rayev) tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Rasulov), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (F.Norboyev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Tuman moliya bo‘limi (Sh.Shermuhammedov) Xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va Sog‘liqni saqlash bo‘limlari bilan birgalikda:

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

23. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Tuman hokimligi:

Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari (B.G‘aybullayev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27. Mazkur qaror “Qorako‘l sadosi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining

Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Ochilov N. X.**

Халқ депутатлари Қоракўл туман
Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-45-1-2-37-K/22-сон қарорига
1-илова

1-ilova

Qorako‘l tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so’mda

T/r	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	8 608 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	13 437 200
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0
5	Aksiz solig‘i, jami	0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 730 000
8	Yuridik shaxslar olinadigan yer solig’i	0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliq	13 405 000
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 737 000
12	Davlat boji	0
13	Jarimalar	0
14	Ijara to‘lovi	91 000
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	0
16	Yig‘imlar	4 190 000
JAMI		**49 198 200**
17	**Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad**	**26 747 724**
	Alkogolga aksiz solig‘i, shu jumladan pivo	10 122 615
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	5 766 443
	Tamaki maxsuloti uchun aksiz solig‘i	10 858 666
18	**Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar**	101 108 153
HAMMASI		**177 054 077**

Халқ депутатлари Қоракўл туман
Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-45-1-2-37-K/22-сон қарорига
2-илова

2022 yil uchun Qorako‘l tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Qorako‘l tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**177 054 077,0**
1.	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	9 029 383,0
2.	Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi	12 241 394,0
3.	Tuman Tibbiyot birlashmasi	67 387 289,0
4.	Tuman Madaniyat bo‘limi	1 539 993,0
5.	Tuman Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi	6 482 099,0
6.	Tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi	549 653,0
7.	Tuman hokimligi	59 606 911,0
8.	Fermerlar kengashi huzuridagi buxgalteriya markazi	560 803,0
9.	Tuman veterinariya bo‘limi	1 463 786,0
10.	Tuman hokimligi Moliya bo‘limi	984 819,0
11.	Tuman irrigatsiya bo‘limi	1 634 943,0
12.	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	495 630,0
13.	Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi	5 409 395,0
14.	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar bulimi	590 605,0
15.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	9 077 374,0

Халқ депутатлари Қоракўл туман Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-45-1-2-37-K/22-сон қарорига
3-илова

Umumdavlat soliqlaridan Qorako‘l tumani mahalliy byudjetiga 2022 yildagi ajratmalari me’yorlari

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i
1	Qorako‘l tumani	0	100	20	100	0	0	100	0	100

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	Aksiz solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Qorako‘l tumani	100	0	100	0	0	100	0	100

Халқ депутатлари Қоракўл туман
Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-45-1-2-37-K/22-сон қарорига
4-илова

Qorako‘l tumani mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Byudjetlar nomi	Daromad *	Xarajat
Qorako‘l tumani	75 945 924,0	177 054 077,0

** mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Халқ депутатлари Қоракўл туман
Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-45-1-2-37-K/22-сон қарорига
5-илова

Qorako‘l tumani mahalliy byudjetining 2022 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Qorako‘l tumani	101 108 153,0

Халқ депутатлари Қоракўл туман
Кенгашининг
2022 йил 14 январдаги
VI-45-1-2-37-K/22-сон қарорига
6-илова

Qorako‘l tumani mahalliy byudjetida 2022 yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Qorako‘l tumani	1 337 000,0